

O'ZBEKISTON MADANIYATINING XALQARO MIQYOSDAGI O'RNI**Mahmuda Karimova Raxmonbekovna***Zo'r tv telekanal "Ertalabdan salom"**jonli efir muharriri va boshlovchisi.*

Annotatsiya: *O'zbekiston madaniyati asrlar davomida shakllangan, betakror va o'ziga xos bir mozaikadir. Bu madaniyat Markaziy Osiyodagi tarixiy hodisalar, xalqning hayoti, diniy e'tiqodlari va tabiiy sharoitlar ta'sirida shakllangan. Ushbu ilmiy maqolada O'zbekiston madaniyati hamda uning tarixan shakllanishi, hamda bugungi kunda xalqaro miqyosdagi o'rniga haqida so'z boradi*

Kalit so'zlar: *Madaniyat, O'rta Osiyo, din, jamiyat, madaniy-tarixiy, xalq, tarixiy manba, bag'rikenglik.*

Respublikamiz hududida turli davrlarda, ayniqsa, XX asrning birinchi yarmi, so'ng'i choragida olib borilgan tadqiqotlar mamlakatimiz madaniyati umuminsoniy madaniyatning bir tarkibiy qismi bo'lganligini, turli davrlarda ikki qit'a - Osiyo hamda Yevropa madaniyatlari va manfaatlarini to'qnashadigan joy bo'lganligini ko'rsatadi. Bir tomondan, hozirgi O'rta Osiyo xalqlarining madaniyati qadim - qadim davrlardan buyon bir-biri bilan bog'liq holda shakllanib taraqqiy etgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, qo'shni davlatlar va mintaqalar xalqlari madaniyatidan ta'sirlangan va aksincha aks ta'sir etgan. Qadimgi dunyo tarixining har bir davri ya'ni ilk paleolit, o'rta paleolit, so'nggi paleolit, mezolit, neolit, eneolit davrining har birini o'zini madaniyati mavjud bo'lgan. Mintaqamizning iqtisodiy-geografik joylashuvi, tarixiy manbalar va asarlarda ko'rsatilishicha, eramizdan avvalgi VI- IV ming yilliklar oralig'ida Markaziy Osiyo geografik joylanishuvi va iqlim sharoitiga ko'ra ikkita yirik madaniy-tarixiy hududga bo'lingan. Mazkur bo'linish o'sha davr kishilarining xo'jalik yuritishida, turmush tarzi va o'zaro madaniy aloqalari hamda san'atida o'z aksini topgan.

"Bizning qadimiy va sahovatli zaminimizda ko'p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Mehmondo'stlik, ezgulik, qalb sahovati va tom ma'nodagi bag'rikenglik bizning xalqimizga doimo xos bo'lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi". O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Sh.M.Mirziyoyev. Prezidentimizning ushbu so'zlari amali o'laroq mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar markazida, avvalo, inson manfaati, uning huquq va erkinliklarini ta'minlash maqsadi turadi. Fuqarolar manfaatlarini faqatgina tinchlik va osoyishtalik, o'zaro hurmat, mehr-oqibat va hamjihatlik muhitini yaratish orqali ta'minlash mumkin. Bugun dunyo koronavirus pandemiyasi bilan bog'liq inqirozga duch kelgan bir sharoitda ko'plab mintaqalarda millatlararo va konfessiyalararo ziddiyatlar kuchayayotganiga guvoh bo'lmoqdamiz. Shu bois, boshlangan islohotlarni izchil davom ettirish uchun birdamlikni saqlash muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda aholining ko'p millatli bo'lishi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning qulay omili sifatida qaralmoqda. Ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni

saqlash, dinlararo va millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirish hisobiga xalqaro maydonda O'zbekistonning obro'si oshib bormoqda.

Iqtisodiy rivojlanish, madaniy yuksalish va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga ustuvor ahamiyat berib, O'zbekiston nafaqat o'z xalqining turmush darajasini oshirishga, balki jahon sahnasida faol ishtirokchi sifatida o'zini namoyon qilishga intilmoqda. Mazkur jarayonda, jumladan, milliy madaniy va ma'naviy merosni asrab-avaylash hamda ko'paytirish, san'at va badiiy ijodni har tomonlama rivojlantirish, xalqni milliy va jahon madaniyatining eng yaxshi namunalaridan bahramand etish, madaniyat muassasalari faoliyatini takomillashtirish, malakali kadrlar tayyorlash, davlatlararo va xalqaro madaniy aloqalarni kengaytirish hamda mustahkamlash, bebaho madaniy merosni xalqaro miqyosda keng targ'ib qilish borasidagi sa'y-harakatlar alohida e'tirofqa loyiq.

Yangi O'zbekistonni barpo etish konsepsiyasida, avvalo, huquqiy bazani mustahkamlashga e'tibor qaratilmoqda va aslida, har qanday sohada aniq tizim, mexanizm yaratishda qonuniy asoslar juda muhim. Madaniyat sohasi misolida aytsam, O'zbekistonda so'nggi 5 yilda ayni yo'nalishga doir 4 ta qonun, Prezidentning o'nlab farmon va qarorlari, hukumat qarorlari qabul qilinganidan yaxshi xabardorman. Ilk bor madaniy faoliyat masalasida alohida qonun, Milliy madaniyatni yanada rivojlantirish bo'yicha konsepsiya qabul qilingani diqqatga sazovor.

O'zbekiston madaniyati hozirgi holatga kelguncha murakkab va uzoq davrni bosib o'tdi. O'zbekiston xalqlari madaniyati va urf-odatlarining paydo bo'lishi miloddan avvalgi 2-asr oxirlaridan boshlangan Buyuk Ipak yo'li bilan chambarchas bog'liqdir. "Ipak yo'li" atamasi nemis olimi Ferdinand Frayherr fon Rixtofen tomonidan 1877 yilda o'zining "Xitoy" nomli klassik asarida kiritilgan va olimlar orasida o'rnatilgan. Bu mutlaqo oqlanadi, chunki boshqa bir nemis olimi Albert Herrmann ta'kidlaganidek, aynan ipak eng muhim tovar bo'lib, miloddan avvalgi 2- asr oxirida G'arb va Sharqda ikki xil dunyoni bir-biriga ma'lum qildi. Aynan O'zbekistonning Ipak yo'li o'rtasida joylashgan geografik joylashuvi mamlakatdagi eng muhim etnik jarayonlarga olib keldi. O'zbekiston xalqlari alifbo va buddizm, nasroniylik, zardushtiylik, manixeylik va islom singari dunyo dinlarini, shuningdek Osiyo va Uzoq Sharq mamlakatlaridagi boshqa ko'plab madaniy yutuqlarni tarqatishda katta hissa qo'shganliklari haqida tan olingan. Arxeologik qazishmalar shuni ko'rsatadiki, zardushtiylik dini O'zbekiston hududida bundan 3,5 ming yil oldin paydo bo'lgan.

Sug'd, Baqtriya, Xorazm, Sirdaryo va boshqa qadimiy davlatlar o'z vaqtida kuchli madaniyat va ilm-fan markazlari bo'lgan. Ular o'z madaniy an'analarini yaratar ekan, ko'plab xalqlar bilan yaqin munosabatlar o'rnatgan, bu esa O'zbekiston madaniyatini boyitishga xizmat qilgan.

Islomning kirib kelishi bilan bu hududda islomiy me'morlik, adabiyot va ilm-fan rivojlangan. X asrdan boshlab Movarounnahrda olimlar va san'atkorlar butun dunyoga mashhur bo'ldi. Islom madaniyati paydo bo'lishi va qaror topishiga o'zbek xalqining ajdodlari beqiyos hissa qo'shgan. Haqiqiy hadis haqidagi muqaddas bilimlarni saqlagan Imom al-Buxoriy va at-Termiziylarning ma'naviy ishlari butun Islom olamida ulug'lanadi. O'rta asr

islom madaniyatining buyuk yutuqlari bu taniqli davlat arbobi Amir Temur hukmronligi bilan boshlangan temuriylar Uyg'onish davri qo'l san'atlari, me'morchilik, ilm-fan va adabiyotdagi yutuqlardir. Ulug'bek, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi allomalar o'z davrining buyuk bilimdonlari bo'lib, dunyo ilm-faniga ulkan hissa qo'shgan. Bu davrda ko'plab kitoblar, ilmiy asarlar yaratilgan, me'moriy obidalar qurilgan.

Samarqand, Buxoro, Termiz va Xiva kabi qadimiy shaharlardagi tarixiy yodgorliklar ham saqlanib qolgan. O'zbekiston hukumati tashabbusi bilan va YuNESKO ishtirokida 1997 yilda yer yuzidagi eng qadimgi shaharlar - Buxoro va Xiva tashkil etilganligining 2500 yilligi munosabati bilan tantanalar bo'lib o'tdi.

O'zbekiston xalqining boy og'zaki ijodi va folklori ham madaniyatning muhim qismidir. Xalq ertaklari, qo'shiqlari, maqollari va dostonlari xalq hayoti, orzu-umidlari va qahramonliklarini aks ettiradi. Masalan, "Alpomish" dostoni - o'zbek xalqining eng mashhur epik asarlaridan biridir. U ko'p asrlar davomida og'zaki ijod shaklida yetib kelgan va xalq orasida keng tarqalgan. Alpomish qahramoni o'z xalqining erki va ozodligi uchun kurashuvchi mard va jasur yigit sifatida tasvirlanadi. Ushbu dostonda o'zbek xalqining qadimiy urf-odatlarini, an'analari va qadriyatlarini aks etgan. Folklor asarlarini ijro etishda baxshilar - xalq qo'shiqchilari va dostonchi ijrochilar muhim rol o'ynaydi. Baxshilar o'zining noyob ijro uslubi va mahorati bilan xalq orasida katta hurmat qozongan. Ular turli tadbirlar va marosimlarda xalqning sevimli dostonlari va qo'shiqlarini ijro etib, milliy ruhiyatni uyg'otib kelishadi.

Bugungi kunda O'zbekiston madaniyati milliy an'analar va zamonaviy rivojlanish o'rtasida uyg'unlashgan. Mustaqillik davrida ko'plab tarixiy obidalar, madaniy meroslar tiklandi va xalqaro miqyosda tanildi. UNESCO tomonidan Samarqand, Buxoro va Xiva kabi shaharlar Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan. O'zbek madaniyati xalqaro miqyosda namoyon bo'lib, ko'plab madaniyat va san'at festivallarida qatnashmoqda.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, milliy madaniyatni rivojlantirish, asrab-avaylash va targ'ib qilish bo'yicha ko'plab ishlar amalga oshirildi. O'zbek xalqining milliy o'zligini mustahkamlash, yoshlarga milliy qadriyatlarni o'rgatish va xalqaro miqyosda o'zbek madaniyatini targ'ib qilish uchun maxsus madaniyat markazlari tashkil etilgan. Turli davlatlar bilan madaniy aloqalar o'rnatilib, xalqaro madaniyat festivallari va ko'rgazmalar orqali O'zbekiston madaniyati butun dunyoga tanitilmoqda.

O'zbekiston madaniyati o'zining boyligi, xilma-xilligi va o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Asrlar davomida shakllangan bu madaniyat nafaqat o'zbek xalqining, balki butun insoniyatning boy merosidir. Madaniyat va san'atga bo'lgan chuqur hurmat, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va rivojlantirishga bo'lgan intilish O'zbekiston xalqining eng yaxshi fazilatlaridan biridir. Bu madaniyat xalqning milliy o'zligini mustahkamlab, kelajak avlodlarga bebaho meros sifatida yetkaziladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. B. B. Jo'raboyev "O'zbekiston madaniyat va urf-odatları" academic research in educational sciences volume 2 | issue 6 | 2021 issn: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 DOI: 10.24412/2181-1385-2021-6-1506-1513
2. Madaniyat va ma'naviyat muammolari.-T.; «Meros», 1994.
3. Abdullaev M. Madaniyatshunoslik asoslari asoslari. "Farg'ona", 1998
4. Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. - T.: Universitet, 2007..
5. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. — T.: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
6. Gulmira Bektursinova "O'zbekiston tashqi madaniy aloqalaridagi o'ziga xosliklar" "Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal / ISSN 2181-063X Volume 3 Issue 4 / December 2022